

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

TAHRIRHAY'ATI

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov,

f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof G'.Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., prof. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.d., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, s.f.d., prof v.b. N.B. Dexkanov, t.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n.,dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova., PhD. B.Urinov.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: *N.Yusupov. Tahririyat manzili: Namangan shahri,*

Boburshox ko'chasi, 161-uy Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2024-yil 10-yanvardagi kengaytirilgan 10-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 1). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

Ibroximov Farhodjon Anvarjon o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktranti

ibrohimovf2209@gmail.com (91 329 22 09)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning asosiy talablaridan biri bo'lgan yoshlar huquqiy madaniyati, uni oshirishda ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud holatlar ta'siri, yangicha pedagogik yondashuvlar, ularning mazmuni va ahamiyati, huquqiy fanlar mashg'ulotlarida e'tiborga olish mumkin bo'lgan jixatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, pedagogik yondashuv, an'anaviy va zamonaviylik, kreativ fikrlash, milliy qadriyat, ijtimoiy faollik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ПОВЫШЕНИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Иброхимов Фарходжон Анваржон угли – докторант Чирчикского

государственного педагогического университета

ibrohimovf2209@gmail.com (91 329 22 09)

Аннотация: В данной статье можно учесть правовую культуру молодежи, которая является одним из основных требований современности, влияние современных условий в образовательном процессе, новых педагогических подходов, их содержание и значение. подготовка юридических предметов. Проанализированы все аспекты.

Ключевые слова: правовая культура, юридическое образование, педагогический подход, традиционное и современное, творческое мышление, национальные ценности, общественная активность.

EFFECTIVENESS OF MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES IN IMPROVING THE LEGAL CULTURE OF YOUTH

Ibrokhimov Farhod is a basic doctoral student of Chirchik State Pedagogical University

ibrohimovf2209@gmail.com (91 329 22 09)

Abstract: In this article, the legal culture of young people, which is one of the main requirements of today, the influence of the current conditions in the educational process, new pedagogical approaches, their content and importance, can be taken into account in the training of legal subjects. All aspects have been analyzed.

Key words: legal culture, legal education, pedagogical approach, traditional and modern, creative thinking, national value, social activity.

Kirish

Har bir jamiyat taraqqiyoti uning yoshlar ta'lim tizimiga qaratayotgan e'tibori hamda bu tizimning samaradorligi bilan o'lchanadi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da: "Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir", – deya ta'kidlagan edilar.[1] Mamlakatda insonlarning mavjud qonun-qoidalarga nechog'lik amal qilishi bevosita huquqiy ta'lim-tarbiya darajasi, huquqiy voqea-hodisalarga munosib yondashuv bilan bog'liq. Barcha xalqlar o'z yoshlarining huquqiy madaniyati yuksak bo'lishini orzu qiladi, shuning uchun harakat qiladi. Bu haqida fikr yuritib mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev "...*qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat*" – deya ta'kidlagan.[2] Shu munosabat bilan yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning keng joriy qilinishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

1997-yil 25-iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholi huquqiy madaniyatini darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish tizimini yaxshilash haqida"gi Prezident Farmoni, 1997-yil 29-avgustdagi "Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi", 2001-yil 4-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Prezident farmoyishi, 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Prezident Farmoni va shu kabi boshqa oliy maqomdagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligining o'zi bu masalaning davlat siyosati darajasidagi ahamiyatini ochib beradi. Mazkur hujjatlarda belgilangan maqsadlarga erishish albatta uzluksiz ta'lim tizimida dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Shu kunga qadar Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, huquq asoslarini o'rganish, davlat, jmiyat, oila va yoshlar tarbiyasi, yoshlarni huquqiy tarbiyalash, ta'lim-tarbiya, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalari A.Saidov, R.Turdiyeva, X.Mamatov, T.Maxmudov, Sh.Xalilova va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, U.Tadjixanov va A.Saidov muallifligida yaratilgan "Huquqiy madaniyat nazariyasi" nomli darslikda huquqiy madaniyat tushunchasi, tarkibiy qismlari, uni shakllantirishda huquqiy ta'limning ahamiyati atroflicha ochib berilgan.

N.Mahkamova mazkur masalaga oid mavjud quyidagi kamchiliklarni sanab o'tadi:

- Texnika oliy ta'lim muasasasalari talabalarida huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid o'zbek tilida darslik va metodik qo'llanmalarning kamligi;
- huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonlarining pedagogik-psixologik jixatlari yetarli o'rganilmaganligi;
- mazkur muammoga ijodiy yondoshilmaganligi;
- huquqiy madaniyatni shakllantirish yuzasidan respublikamizda maxsus ilmiy tadqiqot ishlarining kamligi.[3]

Natijalar

Ta'lim tizimida huquqiy ta'lim alohida o'ringa ega. Bu jarayonda u uch vazifani bajaradi: 1) mutaxassis huquqshunoslarning maxsus tayorgarligi; 2) fuqarolarning umumiy ijtimoiy tayorgarligi, huquqiy bilimlar bilan ta'minlanganligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat,

shuningdek, qonunga itoatkorlik kayfiyatini oshirish; 3) jamiyatda huquqiy bilimlarni ommalashtirish.[4] Ta'limga zamonaviy yondashuvlarni keng joriy qilib borish masalasi ko'plab pedagog olimlarimiz tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, oldimizda uni huquqiy fanlar doirasiga ham yo'naltirish masalasi(imkoniyati) turibdi. Zamonaviy pedagogikada ta'limga yondashuvlarning quyidagi asosiy turlari farqlanadi:

1. Shaxsiy yo'naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuvning eng taniqli namoyondalari R.Shtayner, M.Montessori, I.S.Yakimanskayalar hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida umumiy tamoyil sifatida ma'lum bir yakuniy maqsad - shaxsning ideal modeli olinadi. Ta'lim tizimining barcha boshqa tarkibiy qismlari, uning ishlashi va o'zini o'zi rivojlantirish uchun shart-sharoitlar berilgan yakuniy natijani hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bu boshqa nazariyalar va ta'lim tizimlari doirasida shaxs, uning ideal modeli e'tiborga olinmaydi degani emas: gap shundaki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida o'quvchi shaxsiga ustuvorlik beriladi. Tan olish kerakki, bugungi ko'plab jamiyatlarning erishayotgan ijtimoiy yutuqlari ana shu yondashuv bilan bog'lab talqin etilmoqda.

Huquqiy fanlar mashg'ulotlarida ham bu yondashuvdan foydalanish yuqori samara beradi. Masalan, mavzuga aloqador muammoli keyslarning aynan auditoriya faoliyatiga, kundalik hayotiga aloqador bo'lgan masalalarda tanlanishi talabalar manfaatdorligini va qiziqishining ortishiga xizmat qiladi;

2. Shaxsiy-faoliyat yondashuvi. Bu yondashuv shaxsning rivojlanishi faoliyatda amalga oshiriladi, degan g'oyani amalga oshiradi. Shu bilan birga, faoliyat tarkibiy qismlar tizimi orqali ko'rib chiqiladi: ehtiyojlar, motivlar, harakatlar, shartlar, operatsiyalar, natijalar. Ta'limda faoliyat yondashuvining barcha tarkibiy qismlarini va barcha jihatlarini ochib berish vazifasini o'z oldimizga qo'ymasdan, biz haqiqiy pedagogik amaliyotda faoliyatning motivatsion-ehtiyotiy, protsessual va mazmuniy jihatlarini muayyan xususiyatni hisobga olgan holda yaxlit tarzda amalga oshirilishini ta'kidlanadi. Shuning uchun, yanada samarali rivojlanish uchun pedagogik nazariya va amaliyotni takomillashtirishda shaxsiy-faollik yondashuvi talab etiladi.

Huquqiy fanlar mashg'ulotlarida talabalarining o'rganayotgan mavzulariga aloqador bo'lgan konferensiya tadbirlarida, fan olimpiadalarida, mustaqil ilmiy loyixalar bilan turli ilmiy musobaqalarda qatnashib o'z bilimlarini mustahkamlab borishlarini rag'batlantirishni nazarda tutadi. Bu esa talabaning o'z bilim-ko'nikmalari ustida ko'proq ishlashiga undaydi.

3. Madaniy yondashuv. Ushbu yondashuvni amalga oshirishda o'quv jarayonining asosi milliy madaniyatga, an'analarga murojaat qilishdir. Yosh avlod madaniyatini tarbiyalashni har bir xalqning psixologik tarkibi, urf-odatlar, marosimlari va bayramlarini hisobga olmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi-yoshlarni tarbiyalash muammolarini hal qilish o'z xalqining ma'naviy va axloqiy qadriyatlariga tayanmasdan amalga oshirish mumkin emas: jamoaviy ong, o'tmish ajdodlarning tarixiy xotirasiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ma'naviy saxiylik, dindorlik, hayotga hissiy va aqliy munosabat. Ta'limda madaniy yondashuv o'qituvchini milliy madaniyati, milliy an'analar, milliy pedagogika ta'lim jarayonining asosiga aylanishini ta'minlashga yo'naltiradi. Ushbu yondashuv juda samarali va mohiyatan etnopedagogika rivojlanishidagi markaziy g'oya bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o'qituvchi xalq pedagogikasiga tayanmasdan, yosh avlodda o'z xalqining an'analari, tili va madaniyatiga hurmatni singdirmasdan turib, o'z vazifasini bajara olmaydi.

Masalan, mehnat qonnochiligidan bayram kunlarining belgilanishida huquq manbasi bo'lib xizmat qilgan milliy, diniy an'analarga e'tiborni qaratish o'quvchi-talabalardan huquq manbasi mavzusini doimo mustahkamlab borishga, shuningdek har bir normaning yaratilishiga tizimli-tahliliy yondoshish ko'nikmalarini oshirishga undaydi. Birgina misol, Bosh qomusimiz 50-moddasidagi "Har kim bilim olish huquqiga ega..." degan normani qiyosiy-tahlil qilishda uning milliy huquq tizimimizga kiritilishida "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", "Ilmni Chin mamlakatidan bo'lsa ham o'rgan", "Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" kabi hadislariga tayanilganiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. (Ayrim mamlakatlarda ta'limni davom ettirish chun mayyan shartlar kiritilgan. Masalan, Janubiy Koreyada fuqaro 5 yildan ko'p bo'lgan muddatda ijtimoiy hayotning boshqa sohasida faoliyat yuritgan bo'lsa, u ta'lim tizimiga qabul qilinmaydi. Yuqoridagi normaga asosan bizda esa istalgan yoshda ham oliy ta'limga hujjat topshira oladi.)

4. **Qiymat yondashuvi** ta'limda qadriyatlarga yo'naltirilgan bo'lib, ular orasida yoshlar ko'pincha haqiqatga intilish, ijtimoiy adolat, halollik va qadr-qimmat, o'z sog'lig'i va atrofida qilargana xayrixohlik va insoniylik, yordam berishga tayyorlik, iste'dod va norozilikni hurmat qilish va boshqalarni nazarda tutadi. Huquqiy fanlar mashg'ulotlarida har bir mavzuga aloqador holatda mazkur masalalarning atroflicha ochib berilishi o'quvchi-talabalarning faolligini hamda mavzuga aloqadorlik kayfiyatining oshishiga xizmat qiladi. Masalan, ko'p o'rinlarda huquq normalarida belgilangan "qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa xatti-harakatlarni sodir etish" qoidasi o'zida erkin tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi. Lekin amalda mazkur norma noo'rin tushunilishi yoki umuman foydalanilmasligi holatlari ko'zga tashlanadi.

Bugungi kunda talaba yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashda shubhasiz taraqqiyot bilan bir qatorda, bozor iqtisodiyoti va globallashuv sharoitida ayniqsa aniq bo'lgan quyidagi to'siqlar ham mavjud:

- o'quvchi-talabalarning pulning o'rni va ahamiyati haqidagi g'oyalaridagi gipertrofiya, materializm, har qanday holatda ham shaxsiy moddiy farovonlikka yo'naltirilganlik;
- milliy madaniy qadriyatlarga kam baho berish, ba'zan hatto mensimaslik;
- begona hamma narsaga ko'r-ko'rona, ko'pincha o'ylamasdan hayratlanish;
- tabiatning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik; iste'molchilarning tabiatga munosabatidagi o'zgarishlar;
- dissidentlarga nisbatan muhosasiz munosabat (jamiyatning o'zgacha fikrga ega a'zolari);
- mehribonlik, vijdonlilik, rahm-shafqat va boshqalarni qadrlamaslik.

Zamonaviy tarbiyani, ta'lim kabi, insonparvarlik, insonning o'ziga, uning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilishga e'tibor qaratmasdan, uning erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmasdan turib tasavvur qilish qiyin. Shu nuqtai nazardan qaraganda qiymat yondashuvining mazmuni oydinlashadi;

5. **Gumanistik yondashuv** - Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari, Uyg'onish davri gumanistlari) ta'limda qarashlar tizimini aks ettiradiki, unga ko'ra inson, bilimli shaxs yashash, baxt, hayotga munosib yashash huquqiga ega bo'lgan oliy qadriyat hisoblanadi. Insonparvar pedagogika uchun bolaning huquq va erkinliklari, uning erkin va ijodiy rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Ta'limga bunday yondashuv "o'qituvchi-o'quvchi" darajasidagi munosabatlar tizimi o'zaro hurmat, adolat va muhabbatga asoslanganligini ta'minlashga qaratilgan. Gumanizm umuminsoniy qadriyatga aylanishi kerak, unga

tayanmasdan adolatli, erkin, tashqi dunyoga ochiq inson tarbiyasini tasavvur qilish qiyin. Demak, ta'limdagi insonparvarlik yondashuvi, bir tomondan, insonparvarlik dunyoqarashiga asoslansa, ikkinchi tomondan, o'quvchida insonparvarlik dunyoqarashini maqsadli shakllantirishga qaratilgan. Bunday yondashuv ayni paytda o'qituvchi-pedagogni o'quvchilar o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini, ularning bir-biriga hurmatli, adolatli va halol munosabatini shakllantirishga yo'naltiradi.

Huquqiy fanlar mashg'ulotlarida gumanistik yondashuv huquq normasi maqsad-mazmunining maqsadga muvofiq tushunilishini ta'minlaydi. Qolaversa, barcha xalqaro va milliy huquq manbalarining asosiy tamoyillaridan biri sifatida "inson eng oliy qadriyatdir", deb belgilangan.

Insonparvarlik tabiatga nisbatan insoniylik bilan munosabatni ham anglatadi, bu ekologik ta'lim va tarbiya orqali eng samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin. Natijada nafaqat huquqiy bilim beriladi, qolaversa ijtimoiy madaniyatning boshqa sohalari ham yuksalishiga hissa qo'shiladi.

Muhokama

Qolaversa quyidagi an'anaviy yondashuvlardan ham foydalanish maqsadga erishishni ta'minlaydi:

Tizimli-strukturaviy yondashuv. Tizimli-strukturaviy yondashuv shundan iboratki, o'rganish predmeti o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida qaralib, birinchi navbatda bu elementlar orasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sir o'rganiladi.

Bu yondashuvda o'rganilayotgan obyektni butun bir olam tizimida tutgan o'rni, o'zaro bog'liqligi va ahamiyati kabi masalalar *umumiylikdan xususiylikka tomon* metodi yordamida yoritiladi. Masalan, huquqiy tizim mavzusini tushuntirishda uning tarkibiy elementlarini shunday joylashuvichi klaster usulida ko'rsatib berish kerakki, u orqali talaba mazkur tizim va uning elementlarining o'zaro bog'liqligini aniq tasavvur eta olsun.

Nazariy yondashuv. Shu obyektga aloqador nazariy bilimlarni umumlashtirib xulosa qilish. Nazariy usullarni qo'llash tizimli-strukturaviy, tipologik va tarixiy kabi bir qator yondashuvlarga asoslanadi. Ular o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning qonuniyatlarini ochib berishga imkon beradi.

Tipologik yondashuv. Bu yondashuv esa o'rganilayotgan obyektning shu turdagi boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda VENN diagrammasi metodidan keng foydalaniladi. Barcha huquqiy fanlarga kirish qismida ushbu yondashuv va metoddan foydalanish amaliy samara beradi.

Tipologik yondashuvni qo'llash o'rganilayotgan obyektlar va hodisalarni guruhlash va ularning muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Tipologik yondashuvdan amalda foydalanilganda metodologiya fanining barcha muammolari o'rganiladi.

Tarixiy yondashuv esa o'quvchilarning barcha fanlardan olgan bilimlarini o'zaro birgalikda qo'llab umumiy xulosa olishga xizmat qiladi, mustaqil fikrlash qobiliyati ortishiga, masalaga turli nuqtai nazardan yondoshishga chorlaydi.

Xulosa

Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijodiy yondashuvni kuchaytirishni eng asosiy omil sifatida qarash mumkin. Shu bilan birga bu borada turli mas'ul tashkilot-muassasalarning o'zaro hamkorligini tizimli yo'lga qo'yish yuqori natijalarni kafolatlaydi. Xususan, "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha

rivojlantirish Konsepsiyasi”da yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan qatlami bilan mas’ullar o’rtasida to’g’ridan to’g’ri muloqot o’rnatishga xizmat qiluvchi “Yoshlar murojaati” elektron platformasini yaratish, qonun ijodkorligida yoshlarning yaqindan ishtirokini ta’minlash vazifalari belgilangan.[5]

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 310-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2022-2023-yillarda O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi”da ham mahallalarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularda fidoiylilik va mas’uliyat tuyg’ularini shakllantirish maqsadida mahalla-sektor-tuman-hudud-respublika darajasida **“Temur tuzuklari bilimdoni”** tanlovini tashkil etish, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligiga bag’ishlab, **“O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining huquqiy kafolati”** targ’ibot loyihasini amalga oshirish. Loyiha doirasida **“Yoshlar va qonun”**, **“Yosh huquqshunos”** tanlovlarini o’tkazish, o’quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g’urur va iftixor tuyg’usini shakllantirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy qismlariga ekskursiyalarni tashkil qilish vazifalari belgilangan. Ana shunday tadbirlarni amalga oshirishda soha vakillari va mas’ullardan masalaga ijodiy yondashish talab etiladi.[6]

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish tizimi mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab davlat siyosati darajasidagi masala maqomida bo’lib kelmoqda. Bugungi kun tartibidagi masala esa shu jarayonlarga munosib yondashadigan, ijodiy fikrlaydigan kadrlar hamda ularning zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalana olishlarini ta’minlash hisolanadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” / O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruza. –Toshkent: O’zbekiston. – B.27.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Xalq so’zi gazetasi № 272-soni. 2022-yil 21-dekabr.
3. Mahkamova N.U. Texnika oliy o’quv yurti talabalarida huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2011. - 160 b.
4. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. -Toshkent: O’zbekiston, 1998. - B.76.
5. “O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” / O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23-son qarori, 2021 yil 18-yanvar. Toshkent.
6. “2022-2023-yillarda O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi” / O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 310-son qarori, 2022 yil 7-iyun. Toshkent.
7. G’affarova G. (2023). Raqamli jamiyatda yoshlar ongidagi transformatsiyalar: falsafiy tahlil // Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi. 2-son, -B.128-133.
8. G’affarova G. (2022). Yangilanayotgan O’zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish: imkoniyat va istiqbollari. Monografiya. – Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2022. - 156 b.

9. G'afurova M.A., G'affarova G.G. (2023). Uzbekistanda rahbar ayollar imijini oshirishning ob'yektiv va sub'yektiv shart-sharoitlari // Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi. 6-son, -B.159-165.
10. Gaffarova, G. (2022). Characteristics of Interdiscipline Approaches: Philosophical Analysis. Journal of Ethics and Diversity in International Communication. Volume: 2 Issue: 5, P.55-60.
11. G'affarova, G., Qodirov, B. (2022). Structural fundamentals of action strategy. Journal of Positive School Psychology. Vol.6, No.4, -Pp.9492-9500.
12. Gaffarova G.G., Yoldoshev A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati // International scientific and practical conference —Modern psychology and pedagogy: problems and solutions. – Angliya, 28 mart,-P.322-328.
13. G. Gaffarova, G. Jalalova, (2022). Inson kapitalini rivojlantirish davrida kreativlik zaruriyati. NamDU ilmiy axborotnomasi. №3, -B.207-212.
14. Gaffarova, G.G. (2022), Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasi. –Toshkent: —Noshir, 224 b.

УДК 378.14

AXBOROT TEXNOLOGIYASI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ismanova Klara Do'lanboevna

Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti

Elektron pochta: ismanova_klara73@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida foydalanish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish natijasida shakllangan xulosa va takliflar bayon etilgan. O'quvchilarning bilish faolligini rag'batlantiruvchi ayrim omillar tahlil qilinib, misollar keltirilgan. Muammoli ta'limda qo'llaniladigan savol va vaziyatlar axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga tadbiq etilgan. Ma'lumki, har bir dars jarayoni mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'ziga hos texnologiyalarga ega. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonining ma'lum ketma-ketlikdagi yaxlit jarayoni bo'lib, o'quvchining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maqsadli, avvaldan o'ylangan va kafolatlangan pedagogik natijani ifodalaydi. Pedagogik maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, usul, shakl, vositalar, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Shu bois quyida shaxsiy tajribalarga asoslanib, o'quvchilarning bilish faolligini rag'batlantiradigan va ko'pchilik bunga alohida e'tibor bermaydigan ba'zi bir omillar bayon qiligan.

Kalit so'zlar: kognitiv faoliyat, tizimli yondashuv, pedagogik texnologiya, maqsadga yo'naltirish, pedagogik jarayon, muammoli vaziyat, mantiqiy kuzatish, ijodiy faoliyat.



57	Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash Abdusamatova N.J.....	738
58	Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish muammolari Axmedova N.A.....	743
59	Формирование социального креативность и его роль в педагогике Боймирзаева Д. Д.....	750
60	Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitish metodikasi Burxonova G.G'.....	756
61	Effectiveness of lesson planning in teaching efl (english foreign language) Jamilova Sh.F.....	761
62	Talabalarda kopperatsion yondashuv vositasida pedagogik kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik omillari Qurbonova F.M.....	766
63	Emi in Uzbekistan Maksudova X.F.....	770
64	Oliy ta'lim muassasalarida mobil texnologiyalardan foydalanish G'ofurov A.M.....	776
65	Jismoniy tarbiya bo'yicha kadrlarni tayyorlashda ta'limning faol usullari va texnik vositalarining ahamiyati Hamraqulov T.T.....	781
66	Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi Ibroximov F.A.....	788
67	Axborot texnologiyasi darslarida o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish Ismanova K.D.....	794
68	Ta'lim va tarbiya integratsiyasiga erishishning obyektiv zarurati va subyektiv imkoniyatlari Janonova S.B.....	800
69	Talabalarining fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim va ommaviy axborot vositalarini integratsiyalash mexanizmlari Jumazoda M.B.....	805
70	Kimyo yo'nalishida ingliz tilini kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasi tavsifi Tojimatova M.U.....	810
71	Developing critical thinking skills through reading. Kuchkarova Y., Mukhibillayeva M.....	814
72	Faylasuf va pedagoglarning milliy xalq o'yinlarning ahamiyati to'g'risidagi qarashlari Ismoilov T.....	818
73	Yosh futbolchilarni kordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish usullari Amirov J.O.....	822